



GLOBALLASHUV DAVRIDA MA'NAVİY TARBIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI

Ayzada Turdimuratova

O'qituvchi- stajyor, Qoraqalpoq davlat universiteti

ayzonkabaxtiyarova@gmail.com

+998 93 095 97 59

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10158187>

ARTICLE INFO

Received: 13th November 2023

Accepted: 19th November 2023

Online: 20th November 2023

KEY WORDS

Globallashuv, axborot tarmog'i, internet, tarbiya, ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy, milliylik, g'oya, mafkura, urf-odat, marosimlar, mehmondo'stlik, tolerantlik, insonparvarlik, diniy bag'rikenglik, insonlarga muhabbat.

ABSTRACT

Maqolada globallashuv jarayonlarining o'ziga hos xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning uzluksizligi, ta'lim va globallashuvning o'zaro aloqadorligi mavjudligi aytilgan. Shuningdek yurtimiz va dunyo olimlarining globallashuv haqidagi qarashlarini hisobga olgan holda kategorik tahlili keltirilgan.

Globallashuv davri bizning yashash, ishlash va bir-birimiz bilan muloqot qilish tarzimizda jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Dunyo tobora o'zaro bog'langan bo'lsa, odamlar ichki tinchlik, maqsad va o'z-o'zini amalga oshirish vositasi sifatida ma'naviy tarbiyaga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. Ushbu maqolada biz globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari, shuningdek, an'anaviy donishmandlikni zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirgan yaxlit yondashuv zarurligini ko'rib chiqamiz.

Rossiyalik siyosatshunos-olim V. Mixaylov globallashuvning kompleks ta'rifini qo'yidagicha keltirgan:

Globallashuv bu:

- umumplanetar miqyosdagi bozorning butunjahon moliyaviy-iqtisodiy makonining tarkib topishi;
- mamlakatlar taraqqiyotining postindustrial bosqichi hamda eng yangi kompyuterli va media texnologiyalar negizida butunjahon axborot makonining vujudga kelishi;
- dunyoning gomogenizatsiyalashuvi va universallashtirish;
- neoliberal oqimdagi qadriyatlarning yagona tizimini hamma joylarda tarqatishga urinishlar;
- bir qutbli dunyoni o'rnatish va yangi dunyoviy tartibotni shakllantirishning siyosiy jihatdan talab qilingan kontseptsiyasi. [1, 261]

B. Badi fikricha esa globallashuv – dunyoni gomogenizatsiyalash va universallashtirish hamda milliy chegaralarning buzilishini nazarda tutadigan, doimiy ravishda sodir bo'layotgan tarixiy jarayondir.



Ma'lumki, har qanday jarayon – holatlarning izchil almashinuvi, harakatlarning rivojlanishi. Har bir jarayonning esa qudratli kuchi bo'ladi, bu kuch yoshlardir. Globallashuv sharoitlarida yoshlar yangi qadriyatlar, yangi xulq modellari, yangi madaniyat namunalarining tashuvchilari hisoblanadi. Yoshlar – jamiyat taraqqiyotining potentsiali, istiqbolidir. Nemis tadqiqotchisi F. Tenbruk: «Zamonaviy yoshlar fenomeni o'z-o'zidan yuz beradigan ijtimoiy taraqqiyot natijasi emas, balki ongli ijtimoiy siyosatning, oldindan mo'ljallangan ijtimoiy harakatlarining natijasidir», - deydi.[2, 109]

Yoshlarning har bir yangi avlodi yoshlar va katta avlodlar, yoshlar va davlat munosabatlari solnomasiga yangi, original sahifalarni yozdiradi, shuning uchun yoshlar muammosi hamma vaqt tadqiqotchilarning e'tiborida bo'ladi. Zamonaviy yoshlarning asosiy ustuvorliklari adabiyot va san'atga qiziqishi, oliy ta'limga ega bo'lish, axloqiy qadriyatlarni tanlab olish qobiliyati, kasbiy mahorat va malakalilik, tabiat va insonga ta'sirchanlik, kasbiy dunyoqarashning rivojlanganligi kabilardir. Ya'ni, yoshlar uchun madaniy insonning belgisi – uning har tomonlama rivojlanganligidir. Globallashuvning ulkan yutug'i jahon axborot tarmog'ining – Internetning rivojlanganligi hisoblanadi. Internet eng mashhur axborot manbai deb tan olingan. Yoshlar, ayniqsa ta'sirchan bo'lib, turli texnikaviy yangilanishlarni tezda o'zlashtirib olishadi. Ular uchun Internetdan foydalanish shaxsiy avtomobil yoki sayohat kabi «ramziy iste'mol» va «hayotiy qulaylik» belgisi hisoblanadi. 65 % holatlarda ular Internetga kasbiy ehtiyojlarni qondirish uchun emas, balki bo'sh vaqtni to'ldirish uchun murojaat qilishadi.[3, 8]

Jahon axborot tarmog'i tarqalishining ijobiy oqibatlariga muomala va muloqot doirasining kengayishi, hayotiy tajribaning orttirilishi kiradi. Internetning bir qator salbiy oqibatlari ham bor. Do'stlik va muhabbat kabi virtual tuyg'ular yoshlardan amaldagi hayotga qaraganda ancha kamroq odob-axloq mas'uliyati va moddiy harajatlarni talab qiladi. Bu esa turli ko'rinishlardagi «internet-bog'lanish»lar, «internet-qaramlik»larga olib keladi. Afsuski, Internet pornografiya kabi salbiy hodisalarga yo'l ochib beradi, narkotiklarni izlab topishni osonlashtiradi, foydalanuvchilarda turli ruhiy patologiyalarni shakllantiradi. Bundan tashqari, kibermakonda kompyuter jinoyatchiligi, jaholat, madaniyatsizlik va boshqa salbiy holatlar ham o'rin olgan. Bunday salbiy hodisalar insonni ijtimoiy muhitdan uzoqlashtiradi, uni begonalashib ketishiga sharoit yaratib beradi.

Globallashuv jarayonlaridan eng katta xavf-xatar hech kim «Bu meni madaniyatim», - deya olmaydigan madaniyatning qurilishidadir. «Egasiz» madaniyat vujudga kelib, uning subekti bo'lmaydi, u uchun hech kim mas'uliyatli bo'lmaydi. Shuning uchun «egasiz» madaniyat ma'naviyatsiz, tuban, yovuz, vayronakor bo'lishi mumkin. Agar bu madaniyat hech kimniki, «egasiz» bo'lsa, hech kim uni egallashga, rivojlantirishga majbur emas. U muammoli vaziyatlarga munosabatlar to'plamiga aylanib, o'z funktsiyasini bajarmay qoladi. Natijada yoshlar madaniyatida birxillikka, bir xil qoliplikka moyillik etakchilik qila boshlaydi.[3,8]

So'nggi yillarda akademik ayirboshlash universitetlar hayotining uzilmas qismiga aylanib bormoqda. Akademik mobillik boshqa mamlakatdagi talabalar hayotiga qo'shilish, uning madaniyati, qadriyatlari, hayotiy qarashlarini tushunish, yangi fanlarni o'rganish, muhim hayotiy tajribaga ega bo'lish, o'z ilmiy maqomini ko'tarishning imkoniyatidir. Akademik ayirboshlash dasturida qatnashish o'zbekistonlik yoshlarga mehnat bozoridagi raqobat mavjudligini yaxshiroq anglashga va malakali ishchilar va mutaxassislarning erkin



harakat qilishi shart-sharoitlarini bilishga imkon beradi, farovonlikning ma'lum darajasiga intilishni kuchaytiradi, turmush sharoitlarini yaxshilash, ong va xulqni individuallashtirishga yordam beradi. Globallashuv tufayli tillarning bir-biriga ta'siri muammosi ham dolzarb bo'lmoqda. Umum qabul qilingan yagona so'zlash tili – ingliz tilini egallash va undan foydalanish bilan bir qatorda talabalar boshqa chet tillarini ham o'zlashtirishmoqdalar. Talabalarning mamlakatlararo universitetlar bilan o'zaro almashinuvi, ta'lim grantlari orqali xorijda ta'lim olishlari tufayli madaniyatlararo ta'sir va bog'lanishlar kuchaymoqda, bu esa yoshlarda ma'naviy qadriyatlarning boyitilishiga, o'zga xalqlar madaniy an'analari, dinlariga qiziqishlarining o'sishiga olib keladi, boshqa etnos va xalqlarga nisbatan bag'rikeng bo'lishni tarbiyalaydi.[4, 5-6]

Bugungi kunda globallashuv jahonni faol transformatsiyalashtirib, insoniyat hayotining barcha sohalarini – iqtisodiyot, huquq, madaniyatni, til, ta'lim, ma'naviy-axloqiy taraqqiyotni qamrab olmoqda. Globallashuvning uchta aspektini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, umum tan olingan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish, umumiy madaniy qadriyatlarga va yagona hayotiy tamoyillarga sodiqlik, hamma narsani universallashtirishga intilish; ikkinchidan, ijtimoiy hayotdagi alohida shakllarning integratsiyasi va o'sib borayotgan o'zaro aloqadorligi; uchinchidan, individlarning hayotiy strategiyalari va ijtimoiy aloqalarning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy aspektidir. Inson tarbiyasi haqida gap ketar ekan insonning jamiyatdagi o'rni va vazifalari turli-tuman bo'lgani singari tarbiya turlari ham xilma-xildir. Har bir tarbiya usulining o'ziga xos yo'nalishi va usullari mavjuddir. Hozirgi globallashuv va ma'naviy-ma'rifiy kurashlar davrida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya – tarbiyaning eng muhim va dolzarb ko'rinishlaridandir. Avvalo, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samaradorligiga erishish uchun tarbiyalanuvchining bilim darajasi, fikrlash qobiliyati ham hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunda yoshlarning chuqur bilim olishi, ularning intellektual salohiyatining rivojlanishi, qobiliyatlarining ro'yobga chiqishi uchun barcha imkoniyatlar ochib berilgan. Bu esa mamlakatimiz yoshlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani o'ziga singdirish, milliy istiqlool g'oyasida belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun yoshlarimizda barcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning yana bir maqsadi odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan voz kechib, yangicha, ilg'or fikrlashga o'tishdir.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, uni amalga oshirishning o'z yo'nalishlari va o'ziga xos yo'llari mavjud. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning dastlabki asosi oiladir. Dastlabki ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar ular chuqur ilmiy bo'lmasa-da ota-ona o'gitlari, bobo-momolar tarbiyasidan boshlanadi. [5, 23]

Prezidentimiz Sh. Mirziyoev «Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat. Buning tasdig'ini ko'plab misollarda ko'rish mumkin. Ayrim yoshlarning qisqa yoki uzoq vaqt chet elga, mehnat safariga borib kelib, o'z etiqodini xato deb hisoblab, bizga butkul yot bo'lgan oqimlar, g'oya va tushunchalarni olib kelayotgani ham – bor gap» – deb ta'kidlab o'tganlar.[6]

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada asrlar davomida shakllanib kelgan urf – odatlar, marosim va bayramlar ham milliy mafkurani singdirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. O'g'il va qiz



tarbiyasidagi o'ziga xoslik, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar, bularning barchasi milliy mafkuraning insonparvarlik va ezgulik g'oyalarini shakllantirish uchun yo'naltirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ta'kidlab o'tganidek: «Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga jaholat va murosasizlik tashkil etadi».[7] Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir».

Insonni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash, uning ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda muloqot madaniyati, yani obro'li, e'tiborli kishilarning yuzma-yuz so'zlashuvi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Samimiy o'tkazilgan muloqot ko'p hollarda ommaviy nizo, ajralish yomon yo'llarga kirib ketishlarni oldini oladi. Oilada bolalarga mehnatga muhabbat, qariyalarni e'zozlash, yoshlarni asrash, tabiatni muhofaza qilish, urf – odatlarni hurmat qilishga o'rgatish ota-ona, keksalar bilan muloqot natijasida vujudga keladi.[8]

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, uni ta'limdan ajratib bo'lmaydi, chunki ta'lim ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiz, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya esa ta'limsiz amalga oshmaydi. Bizning fikrimizcha, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani uzluksiz ta'lim bilan qo'shib olib borish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- 1) ta'lim tizimida barcha yoshdagi bolalar va talabalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi singdirishning yangi pedagogik va psixologik dasturni yaratish;
- 2) kadrlar tayyorlash milliy dasturiga alohida o'quvchi va talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish haqida yo'nalish kiritish;
- 3) davlat ta'lim standartlari, darsliklar va qo'llanmalarda qaysi sohada bo'lmasin, albatta milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalarini singdirish;
- 4) maktab, litsey, kollej va institut, universitetlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yuqori, birlamchi darajaga ko'tarish;
- 5) pedagogik kadrlarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida malaka oshirish kurslarini barcha mutaxassisliklar uchun joriy etish;
- 6) ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichida yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini bosqichma – bosqich chuqurlashtirib singdirib borish.[9, 67]

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni har tomonlama barkamol, bilimdon jismonan sog'lom, intellektual rivojlangan insonlar qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi 2018 yil 14 avgustdagi №PQ-3907 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori[10] da ta'kidlab o'tilganidek, mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan



islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.[11]

Bugungi globallashuv jarayonlari dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Shu bois O'zbekistonda ta'limning ijtimoiylashuvi va ilm-fanni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talaba-yoshlarni muayyan mutaxassislik, kasb-hunarni chuqur egallagan kadrlar etib tarbiyalash bilan birga, Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoiylilik ko'rsata oladigan, mustaqilligimiz mohiyati va qadrini teran anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o'zining muqaddas burchi, deb biladigan shaxslar qilib ulg'aytirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

References:

1. Сорокин В. Глобализация и цивилизация: аналитический подход. М.: Мысль.2010.-С.261
2. Афанасьев К. Политология. М.: Знание. 2009, -С.109
3. Хасанов Э. Миллий маънавият назарияси. Т.: Маънавият, 2014.-Б.8
4. Дониёров Б. Талаба ёшларни маънавий-маърифий ишларга жалб этиш усуллари. Т.: Маънавият, 2011.-Б.5-6
5. Хасанов И. Маънавиятшунослик. Т.: Шарқ, 2016.-Б.23
6. Shavkat Mirziyoev jamiyatimizning og'riqli nuqtalari haqida fikrlarini bildirdi // darakchi.uz URL: <https://darakchi.uz/oz/29070>
7. Экстремизм ва терроризмга қарши курашда Ўзбекистон тажрибаси // iiv.uz URL: <https://iiv.uz/oz/news/ekstremizm-va-terrorizmga-qarshi-kurashda-ozbekiston-tajribasi>
8. Omirzakov, R. (2023). SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS AND ITS ROLE IN THE STATE POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION. *International Journal Of Law And Criminology*, 3(07), 89-93.
9. Валиев Н. Педагогика. Т.: Ўқитувчи, 2013.-Б.67
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.08.2018 yildagi PQ-3907-son // URL: <https://lex.uz/docs/-3864155>
11. Omirzakov, R. (2023). CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF ENVIRONMENTAL RIGHTS OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 12, pp. 110-111).